# X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI

**Foyda.** Hisobot ma’lumotlariga ko‘ra, 2024- yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxona va tashkilotlar tomonidan 1678,9 mlrd. so‘m miqdorida yakuniy moliyaviy natija olindi.

2023- yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda, foyda hajmi 205,2 mlrd. so‘mga yoki 10,7 %ga ko‘paygan.

**2024- yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yakuniy moliyaviy natijalar**

| | *Foyda, zarar (-), mlrd. so‘m* | *2023- yil yanvar-fevraliga nisbatan %da* |
|---|---|---|
| **Jami** | **1678,9** | **98,8** |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | 1,2 | 143,6 |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 1650,2 | 103,9 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | -8 | - |
| Qurilish | 6,7 | 84,5 |
| Savdo | -3,7 | - |
| Tashish va saqlash | 2,4 | 2,4 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 1,7 | 61,8 |
| Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar | 3,9 | 3,9 |
| Professional, ilmiy va texnik faoliyat | 0,5 | 67,3 |
| Boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish | 0,2 | - |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 4,9 | 157,7 |
| Boshqalar | 18,9 | - |

Ijobiy moliyaviy natija (foyda)ning asosiy qismi ishlab chiqaradigan sanoat (1 650,2 mlrd. so‘m), qurilish (6,7 mlrd. so‘m), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (4,9 mlrd. so‘m) hamda ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar (3,9 mlrd. so‘m) sohasidagi korxonalarga to‘g‘ri keldi.

2024- yilning yanvar-fevral oylarida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda, foydaning asosiy o‘sishi O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi (187,6 mlrd. so‘m), “Issiqlik elektr stansiyalari” aksiyadorlik jamiyati (144,1 mlrd. so‘m), O‘zbekiston Respublikasi yog‘-moy sanoati korxonalari uyushmasi (8,5 mlrd. so‘m) tarkibiga kiruvchi korxonalarga to‘g‘ri keldi.

**2024- yilning yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalar**

| | *Foyda, zarar (-), mlrd. so‘m* | *2023- yil yanvar-fevraliga nisbatan %da* |
|---|---|---|
| **Viloyat bo‘yicha:** | **1678,9** | **98,8** |
| *shaharlar:* | | |
| Nurafshon | -33,7 | - |
| Olmaliq | 1 546,1 | 107,9 |
| Angren | -53,5 | - |
| Ohangaron | 29,8 | 87,6 |
| Bekobod | 76,6 | 160,1 |
| Chirchiq | -41,0 | - |
| Yangiyo'l | -3,7 | - |
| *tumanlar:* | | |
| Oqqo'rg'on | -5,4 | - |
| Ohangaron | -9,7 | - |
| Bekobod | 0,1 | 88,4 |
| Bo'stonliq | 56,3 | 50,8 |
| Bo'ka | -0,4 | - |
| Quyichirchiq | -0,5 | - |
| Zangiota | 17,5 | 80,9 |
| Yuqorichirchiq | 5,0 | - |
| Qibray | -44,5 | - |
| Parkent | 1,6 | 125,0 |
| Pskent | 3,3 | - |
| O'rtachirchiq | 3,8 | 2,3 m. |
| Chinoz | 3,4 | 130,6 |
| Yangiyo'l | 95,6 | 3,1 m. |
| Toshkent | 32,2 | 127,6 |

Foydaning pasayishi “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyati tarkibiga kiruvchi korxonalarda (-64,1 mlrd. so‘m), O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalari uyushmasi tarkibiga kiruvchi korxonalarda (-23,9 mlrd. so‘m), “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati tarkibiga kiruvchi korxonalarda (-11,9 mlrd. so‘m) kuzatilgan.

Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Olmaliq shahar – 1 546,1 mlrd. so‘m (jami foydaning 92,1 %), Yangiyo‘l tumani – 95,6 mlrd. so‘m (7,7 %), Bekobod shahar – 76,6 mlrd. so‘m (4,6 %) va Bo‘stonliq tumani – 56,3 mlrd. so‘m (3,4 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Zararlar**. 2024- yilning yanvar-fevral oylarida 74 ta korxona va tashkilotlar 447,8 mlrd. so‘m zarar bilan faoliyatini yakunladi.

Zararning asosiy qismi “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati – 131,0 mlrd. so‘m (jami zararning 29,2 %i), O’zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi – 59,2 mlrd. so‘m (13,2 %), O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalari uyushmasi – 13,3 mlrd. so‘m (2,9 %) va O‘zbekiston Respublikasi yog‘-moy sanoati korxonalari uyushmasi – 9,8 mlrd. so‘m (2,2 %) tarkibiga kiruvchi korxonalar hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2024- yilning yanvar-fevral oylarida zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**
*(jamiga nisbatan %da)*



## 2024- yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

| | *Korxonalar soni* | *Zarar summasi* | |
|---|---|---|---|
| | | *mln. so‘m* | *jamiga nisbatan %da* |
| **Jami** | **74** | **447866,6** | **100,0** |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 38 | 261259,1 | 58,3 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni kondisiyalash | 6 | 138511,7 | 30,9 |
| Savdo | 10 | 44966,9 | 10,0 |
| Tashish va saqlash | 2 | 630,5 | 0,1 |
| Axborot va aloqa | 1 | 1145,4 | 0,3 |
| Ko‘chmas mulk bilan opyerasiyalar | 1 | 385,3 | 0,1 |
| Ta’lim | 7 | 373,7 | 0,1 |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 1 | 282,3 | 0,1 |
| Boshqalar | 8 | 311,7 | 0,1 |




2024- yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

Zararning asosiy qismi, ya’ni 261259,1 mln. so‘mi (58,3 %) ishlab chiqaradigan sanoat hamda 138511,7 mln. so‘mi (30,9 %) elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohalariga to‘g‘ri keldi.

## 2024- yilning yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida zarar koʻrgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

| | Korxonalar soni | Zarar koʻrgan korxonalarning ulushi, %da | Zarar summasi, mln. soʻm |
|---|---|---|---|
| **Toshkent viloyati** | **74** | **100** | **447 866,6** |
| *shaharlar:* | | | |
| Nurafshon | 1 | 7,9 | 35 297,6 |
| Olmaliq | 3 | 0,1 | 47,0 |
| Angren | 11 | 21,3 | 95 724,8 |
| Ohangaron | 6 | 5,6 | 24 872,2 |
| Bekobod | 2 | 3,7 | 16 741,9 |
| Chirchiq | 6 | 20,6 | 92 221,1 |
| Yangiyoʻl | 5 | 2,6 | 11 682,3 |
| *tumanlar:* | | | |
| Oqqoʻrgʻon | 1 | 1,2 | 5 382,0 |
| Ohangaron | 2 | 11,4 | 51 723,4 |
| Bekobod | - | - | - |
| Boʻstonliq | 3 | 0,6 | 2 468,6 |
| Boʻka | 1 | 0,1 | 389,4 |
| Quyi Chirchiq | 1 | 0,1 | 545,9 |
| Zangiota | 4 | 0,2 | 752,8 |
| Yuqori Chirchiq | 3 | 1,3 | 6 470,4 |
| Qibray | 12 | 21,7 | 97 685,0 |
| Parkent | 2 | 0,1 | 1,3 |
| Pskent | 3 | 0,1 | 588,1 |
| Oʻrta Chirchiq | 1 | 0,1 | 35,0 |
| Chinoz | 3 | 0,1 | 165,4 |
| Yangiyoʻl | 3 | 1,1 | 4 971,4 |
| Toshkent | 1 | 0,1 | 101,0 |

## Korxona va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorligi holati [1)]

2024- yil 1- mart holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 33 232,4 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shundan muddati o‘tgani 332,5 mlrd. so‘mni yoki jami qarzdorlikning 1,0 %ini tashkil etdi.

Jami debitor qarzdorlik o‘tgan yilga nisbatan 11,9 %ga ko‘paydi, muddati o‘tgan debitor qarzdorlik 2023- yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 6,5 %ga kamaydi.

Hududlar bo‘yicha ko‘rilganda, debitor qarzdorligi yuqori ko‘rsatkich Olmaliq shahri – 15 573,8 mlrd. so‘m (viloyat bo‘yicha jami debitor qarzdorlikning 46,9 %i), Qibray tumani – 4 075,3 mlrd. so‘m (12,3 %), Bekobod shahri – 3 006,3 mlrd. so‘m (9,0 %) va Chirchiq shahri – 2 631,2 mlrd. so‘m (7,9 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

### 2024- yil 1- mart holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning tarkibi

| | *Jami, mlrd. so‘m* | *undan:* | | | *Ichki idoraviy qarzlardan tashqari qarzdorlik* |
|---|---|---|---|---|---|
| | | *xaridor va buyurtmachilar* | *yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan avanslar* | *ichki idoraviy* | |
| **Jami** | **332,5** | **297,7** | **17,7** | **10,2** | **322,3** |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 151,6 | 143,1 | 7,6 | | 151,6 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni kondisiyalash | 101,8 | 90,7 | 9,5 | | 101,8 |
| Qurilish | 0,4 | | | 0,4 | |
| Ko‘chmas mulk bilan opyerasiyalar | 1,1 | | | | 1,1 |
| Professional, ilmiy va texnik faoliyat | 1,3 | 1,3 | | | 1,3 |
| Boshqalar | 76,3 | 62,5 | 0,6 | 9,8 | 66,5 |

[1)] *Budjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.*

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining 2024- yil 1- mart holatiga jami debitor qarzdorligi 19 733,6 mlrd. so‘mni yoki viloyat bo‘yicha jami debitor qarzdorlikning 59,4 %ini, shu jumladan muddati o‘tgani – 66,2 mlrd. so‘mni yoki mos ravishda 0,3 %ni tashkil qildi.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining eng ko‘p debitor qarzdorligi O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi – 18 589,2 mlrd. so‘m (94,2 %), “O‘zkimyosanoat” AJ – 559,2 mlrd. so‘m (2,8 %), “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ – 216,7 mlrd. so‘m (1,1 %), “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi – 210,2 mlrd. so‘m (1,1 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining debitor qarzdorlikdagi eng ko‘p o‘sishi “O‘zkimyosanoat” AJda – 169,5 % (229,2 mlrd. so‘m), “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi – 2,2 babobar (118,1 mlrd. so‘m) va “O‘zbekneftgaz” AJ da – 115,9 % (29,7 mlrd. so‘m) kuzatildi.

Debitor qarzdorlik "O'zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyatida – 95,0 %ga (- 6,4 mlrd. so‘m) kamaygan.

2024- yil 1- mart holatiga kreditor qarzdorlikning umumiy hajmi 20 738,3 mlrd. so‘mni, undan muddati o‘tgani 443,9 mlrd. so‘mni yoki jami kreditor qarzdorlikning 2,1 %ini tashkil etdi.

Jami kreditor qarzdorlik o‘tgan yilga nisbatan 137,2 %ni tashkil qildi, muddati o‘tgan kreditor qarzdorlik 2023- yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 4,8 %ga kamaygan.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining 2024- yil 1- mart holatiga jami kreditor qarzdorligi 6 101,3 mlrd. so‘mni yoki viloyat bo‘yicha jami qarzdorlikning 29,4 %ini, shu jumladan muddati o‘tgani – 193,1 mlrd. so‘mni yoki mos ravishda 43,5 %ni tashkil qildi

Muddati o‘tgan kreditor qarzdorlik hajmi 186,9 mlrd so‘mga ko‘paydi, shu jumladan “Issiqlik elektr stansiyalari” aksiyadorlik jamiyatida – 68,3 mlrd so‘mga ko‘payib, viloyat bo‘yicha jami muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning 15,4 %ini tashkil etdi.

## 2024- yil 1- mart holatiga vazirlik va idoralarning debitor qarzdorligi
*(jamiga nisbatan %da)*




## 2024- yil 1- mart holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha muddati o'tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi

| | *Jami, mlrd. so'm* | *undan:* | | | | *Muddati o'tgan qarzdorlikning ulushi, %da* |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | *yetkazib beruvchilar va pudratchilarga* | *Byudjetga to'lovlar* | *davlat maqsadli fondlariga to'lovlar* | *ichki idora-viy* | |
| **Jami** | **443,9** | **331,6** | **12,4** | **4,3** | **5,9** | **100,0** |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 229,4 | 193,7 | 11,5 | | 5,6 | 51,7 |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondisiyalash | 213,3 | 137,9 | 0,9 | 4,3 | | 48,1 |
| Tashish va saqlash | 0,2 | | | | | 0,0 |
| Ko'chmas mulk bilan opyerasiyalar | 0,2 | | | | 0,2 | 0,1 |
| Boshqalar | 0,7 | 331,6 | 12,4 | 4,3 | 5,9 | 0,2 |

## Xo‘jalik boshqaruv organlarida jami kreditor qarzdorlikning debitorlikka nisbatan o‘sishi

| | Kreditor qarzdorlikning debitorlikdan oshishi | |
|---|---|---|
| | mlrd. so‘m | debitorga nisbatan %da |
| “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati | 419,3 | 176,7 |
| “Issiqlik elektr stansiyalari” aksiyadorlik jamiyati | 381,6 | 187,3 |
| “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati | 14,6 | 112,0 |
| “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati | 2,2 | 4,9 m.k |

Jami kreditor qarzdorlikning debitor qarzdorlikdan oshishi “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati – 419,3 mlrd. so‘m (176,7 %), “Issiqlik elektr stansiyalari” aksiyadorlik jamiyati 381,6 mlrd. so‘m (187,3 %), “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati – 14,6 mlrd. so‘m (112,0 %), “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati – 2,2 mlrd. so‘m (4,9 m.k) hissasiga to‘g‘ri keladi.

Bunday holatlar korxonalarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir etishi mumkin.

Hududlar bo‘yicha ko‘rilganda, yuqori kreditor qarzdorlik miqdori Chirchiq shahar – 4 042,3 mlrd. so‘m (19,5 %), Qibray tumani – 3 053,7 mlrd. so‘m (14,7 %), va Olmaliq shahar – 2 520,1 mlrd. so‘m (12,2 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Bunga qarama-qarshi, kreditor qarzdorlikning nisbatan past ko‘rsatkichlarini Bekobod tumanida – 1,5 mlrd. so‘m (0,01 %), Quyi Chirchiq tumanida – 15,3 mlrd. so‘m (0,1 %), Yangiyo‘l shahrida– 29,7 mlrd. so‘m (0,2 %) va ko‘rish mumkin.